

Sirdaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2020-yil yanvar-iyun)

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish hajmi,

mldr. so'm, o'zgarish sur'ati, %



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020-yilning yanvar-iyun oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 3555,6 mldr. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi 95,3 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 51,9 % ni tashkil etdi.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish


Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda 23,5 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 12,0 % ga o'sishi xizmat qildi.

Shuningdek, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatining-8,1 % ga hamda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida-44,8 % ga pasayishi kuzatildi.



Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash




Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2020-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 11,1 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 % ini tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat

2020-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1845,8 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 51,9 % ini tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat






Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'inining hajmi 110,3 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 6,0 %), o'rta-yuqori texnologiyali 43,0 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 2,3 %), o'rta-quyi texnologiyali 342,9 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 18,6 %), quyi texnologiyali 1349,6 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 73,1 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi



 O'rta-yuqori texnologiyali

 Yuqori texnologiyali

 O'rta-quyi texnologiyali

 Quyi texnologiyali

**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan
ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-iyun	2020-yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming tonna	18,6	22,1	3,5
Aroq, ming l. 100 % spirt	562,7	768,6	205,9
Sellyuloza, ming tonna 90 %	744,9	905,3	160,4
Paxta tolasi, ming tonna	17,2	23,9	6,7
Yigirilgan ip, tonna	1778,8	1275,9	-502,9
Paxta chigit, ming tonna	26,9	35,7	8,8
Paxta tiviti (lint), ming tonna	1,6	2,0	0,4
Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa, ming tonna	12,3	17,8	5,5
Etilen polimer qoplar, ming tonna	11,7	7,7	-4,0
Issiqlik elektr markazlari (IEM) ishlab chiqargan elektr energiyasi, mln. kVt/s	7612,6	7383,1	-229,5
Bug' va issiq suv (issiqlik energiyasi), ming Gkal	74,9	55,5	-19,4

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti ishlab chiqarish
(yirik korxonalar bo'yicha)



Yumshoq bug'doy
va spelta uni

22,1
ming tonna



Aroq

768,6
ming l. 100 % spirit




Sellyuloza

905,3
ming tonna 90 %



Paxta chigit

35,7
ming tonna



Paxta tiviti (lint)

2,0
ming tonna



Yigirilgan ip

1275,9
tonna



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti turlarini ishlab chiqarish (yirik korxonalar bo'yicha)



Paxta tolasi



Etilen polimerli qoplar



Soapstok

24,0
ming tonna**7,6**
ming tonna**121,9**
tonna


Issiqlik elektr markazlari (IEM) ishlab chiqargan elektr energiyasi

Bug' va issiqlik suv
(issiqlik energiyasi)

Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa

7383,1
mln. kVt/s**55,5**
ming Gkal**17,8**
ming tonna

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1680,4 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 47,3 % ini) tashkil etdi.

2020-yilning yanvar-iyun oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 5,7 % ga oshganligi kuzatildi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 18,3 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ini) tashkil etdi.



2020-yilning yanvar-iyun oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 29,3 % ga oshganligi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 1250,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019-yilning mos davriga nisbatan 14,2 % ga pasayishi kuzatildi, jami sanoatdagi ulushi esa 35,2 % ni tashkil etdi.



2019-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 57,3 % dan 2020-yilning yanvar-may oylarida 59,3 % ga oshganligi kuzatilmoxda.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari 0,9 % ni (2019-yil yanvar-iyun oylarida 1,3 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Sirdaryo tumaniga to'g'ri kelib 34,8 % ni, shuningdek, Guliston shahri 17,0 % ni, Yangiyer shahri 9,7 % ni hamda Mirzaobod tumanida 8,2 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishning o'sish sur'atida viloyat (85,8 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Mirzaobod tumanida (102,8 %), Yangiyer shahrida (100,1 %) va Sayxunobod tumanida (100,0 %) qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2020-yilning yanvar- iyun oylarida)**


	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, % da
Sirdaryo viloyati	1250,6	100,0	85,8
Guliston sh	212,8	17,0	97,7
Shirin sh	12,9	1,0	71,6
Yangiyer sh	121,4	9,7	100,1
tumanlar:			
Boyovut	87,7	7,0	42,5
Guliston	29,1	2,3	71,5
Mirzaobod	102,1	8,2	102,8
Oqoltin	33,9	2,7	77,1
Sardoba	45,7	3,7	99,7
Sayxunobod	85,1	6,8	100,0
Sirdaryo	434,6	34,8	88,4
Xovos	85,3	6,8	98,5



Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 477,4 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 13,4 % ni tashkil etdi.






Hududlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va indeksi

	2020-yil yanvar-iyun mlrd. so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Sirdaryo viloyati	3555,6	95,3
Guliston sh	366,7	99,6
Shirin sh	1578,0	93,7
Yangiyer sh	237,7	109,5
tumanlar:		
Boyovut	181,0	97,0
Guliston	63,1	88,8
Mirzaobod	182,7	123,6
Oqoltin	99,2	80,0
Sardoba	64,2	80,2
Sayxunobod	102,6	94,2
Sirdaryo	589,6	85,7
Xovos	90,8	100,6



Viloyatda ishlab chiqarish hajmida hududlar sanoat mahsulotlarining ulushi, % da



Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko‘p ulushi Shirin shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 44,4 %), Sirdaryo tumani (16,6 %), Guliston shahri (10,3 %), hamda Yangiyer shahri (6,7 %), Boyovut tumani (5,1 %) va Mirzaobod (5,1 %) tumanlar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Eng past ko‘rsatkich esa Xovos tumani (2,6 %), Guliston tumani (1,8 %) hamda Sardoba tumaniga (1,8 %), to‘g‘ri kelmoqda.

**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari va
iste'mol mollari ishlab chiqarish
(2020-yil yanvar-iyun oylari, ming so'mda)**


	Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish	Iste'mol mollari
Sirdaryo viloyati	4184,5	1471,9
Guliston sh	4030,1	2338,7
Shirin sh	83936,0	686,0
Yangiyer sh	5464,2	2789,7


tumanlar:

Boyovut	1393,6	675,5
Guliston	866,6	399,2
Mirzaobod	2478,5	1386,0
Oqoltin	1901,5	649,9
Sardoba	970,8	690,9
Sayxunobod	1324,9	1099,3
Sirdaryo	4584,8	3379,6
Xovos	948,6	891,5



**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari
ishlab chiqarish va iste'mol mollarining o'sishi
(2019-yil yanvar-iyun oyiga nisbatan, % da)**






**Viloyatdagi hududiy sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi va ulushi
(2020-yil yanvar-iyun oylarida)**

	Mahsulot hajmi (mlrd. soʻm)	Jamiga nisbatan ulushi, % da
Sirdaryo viloyati	1144,8	32,2
Guliston sh	141,4	38,6
Shirin sh	12,9	0,8
Yangiyer sh	122,3	51,4
tumanlar:		
Boyovut	165,6	91,5
Guliston	29,6	47,0
Mirzaobod	112,2	61,4
Oqoltin	23,6	23,8
Sardoba	38,4	59,8
Sayxunobod	56,6	55,2
Sirdaryo	401,3	68,1
Xovos	40,9	45,1

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi, % da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1233,4 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiyligi ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 34,7 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Guliston shahri (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 77,8 %), Sardoba (74,1 %), Xovos (70,7 %), Sirdaryo (61,4 %), Yangiyer shahri (59,0 %), Mirzaobod (57,8 %), hamda Sayxunobod (57,3 %), tumanlarida kuzatildi.

Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Boyovut tumani (49,7 %), Guliston tumani (47,6 %), Oqoltin tumani (36,2 %) hamda Shirin shahrida (0,9 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

Viloyatda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini (2020-yil 1-iyul holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 1902 ta sanoat korxonalarini faoliyat ko'ssatmoqda, shundan 508 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiyligi sonining 26,7 %) Guliston shahriga, 313 tasi (16,5 %) Sirdaryo tumaniga, 174 tasi (9,1 %) Yangiyer shahriga to'g'ri kelmoqda.



2020-yil yanvar-iyun oylarida viloyatda 311 ta yangi sanoat korxonalarini tashkil etildi, ularning 55,9 foizi Oqoltin tumani, Xovos tumani, Sayxunobod tumani va Guliston shahriga to'g'ri keladi.



Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish Dasturininig amalga oshirilishi

Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 15 ta loyiha bo'yicha 98,2 mlrd. so`mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan bo`lib, jami sanoat mahsulotlari umumiy hajmining 2,8 % ni tashkil etdi. Mahalliylashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 1283,3 ming AQSH dollari miqdorida eksport qilindi, jami viloyat eksport hajmining 1,9 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, 2019-yilning yanvar-iyunga nisbatan mahalliylashtirilgan mahsulotlarni eksport hajmining o'sishi kuzatildi.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish Dasturininig asosiy ko`rsatkichlari

	2019-yil yanvar-iyun	2020-yil yanvar-iyun
Loyihalar soni, birlik	7	15
Korxonalar soni, birlik	7	17
Ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so`m	108,8	98,2
Eksport qilingan mahalliylashtirilgan mahsulot hajmi, ming AQSH dollar	972,3	1283,3
Yaratilgan yangi ish o'rnlari, birlik	231	218

Sanoat statistikasi bo`limi
Aloqa telefoni: (067) 236-86-23